

EKSKLYUZIV LIBOSLARDA DEKORATIV DETALLAR ORQALI INDIVIDUAL USLUBNI IFODALASH

Seydaxmetova Iroda

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eksklyuziv liboslar dizaynida dekorativ detallar yordamida individual uslubni ifodalashning badiiy va estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Libosda qo'llaniladigan bezak elementlari, choklar, tugmalar, to'r va kashtalar orqali individuallikni ifodalash masalasi yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy moda yo'nalishlari, mato va faktura tanlovi hamda dizaynerning ijodiy qarashlari o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, dekorativ detallar orqali libosda o'ziga xoslik yaratish usullari misollar asosida tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *eksklyuziv libos, dekorativ detal, individual uslub, estetik ifoda, dizayn, bezak elementlari, badiiy yechim.*

Annotation: *This article analyzes the artistic and aesthetic significance of expressing an individual style in exclusive clothing design through decorative details. It explores the use of decorative elements, stitches, buttons, lace, and embroidery in conveying individuality in garments. The study examines the harmony between modern fashion trends, fabric and texture selection, and the designer's creative vision. Moreover, the article discusses methods of creating uniqueness in clothing through decorative details, supported by practical examples.*

Keywords: *exclusive clothing, decorative detail, individual style, aesthetic expression, design, decorative elements, artistic solution.*

Bugungi kunda moda sohasi shunchalik tez rivojlanmoqdaki, unda har bir shaxs o'zini boshqalardan ajratib turuvchi, o'ziga xos uslubga ega bo'lishni istaydi. Ayniqsa, eksklyuziv liboslar sohasida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi. Eksklyuziv libos — bu yagona nusxada ishlab chiqiladigan, dizayner ijodini to'liq aks ettiruvchi badiiy kiyim shaklidir. Chunki bunday liboslar oddiy kiyim emas, balki insonning ichki dunyosini, estetik didini va hayotga bo'lgan qarashini ifodalovchi badiiy asar sifatida qaraladi. Har bir libos dizaynerning g'oyasi, ijodiy tasavvur va hissiyotining natijasi hisoblanadi. Eksklyuziv liboslarda dekorativ detallar — bu faqat bezak emas, balki ifoda vositasi. Ular orqali dizayner libosga o'z ruhini singdiradi, uni jonlantiradi va xarakter bag'ishlaydi. Shu sababli har bir detal — tugma, to'r, kashta yoki chokning joylashuvi, shakli va rangi libosning umumiy obraziga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy modada

individual yondashuvning ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, dekorativ detallar orqali shaxsiy uslubni ifodalash dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqolada dekorativ detallar turlari, ularning estetik va badiiy imkoniyatlari, shuningdek, libosda individual ko'rinishni yaratishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Dekorativ detallarning mohiyati va ularning dizayndagi o'rni. Zamonaviy jamiyatda kiyim-kechak nafaqat fiziologik ehtiyojlarni qondirish vositasi balki shaxsning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va estetik didini ifodalovchi muhim belgi tizimiga aylangan. Dekorativ detal deganda libosning asosiy shaklini to'ldiruvchi, unga badiiy ifoda va estetik ko'rinish beruvchi elementlar tushuniladi. Bular — choklar, to'rlar, bezak tugmalar, kashtalar va mato ustiga ishlov berilgan boshqa badiiy elementlardir. Ularning asosiy vazifasi libosni yanada boyitish, individuallikni ifodalash va estetik mukammallikka erishishdir. Moda dizayni nazariyasida dekorativ detallar dizaynerning g'oyaviy niyatini ko'rsatadigan badiiy belgilar tizimi sifatida talqin qilinadi. Individual uslub — bu insonning tashqi ko'rinishida, xususan kiyimida o'ziga xoslik va takrorlanmaslikni ifodalovchi tushuncha. Eksklyuziv liboslarda bu holat, avvalo, detallar orqali yuzaga chiqadi. Dizayner uchun muhim jihat — har bir detalni libos konsepsiyasi bilan uyg'unlashtira olishdir. Libosdagi detallar shunchaki bezak sifatida emas, balki badiiy g'oyani ifodalovchi vosita sifatida tanlanadi. Masalan, kashta tikish orqali milliy motivni, to'rli bezaklar orqali romantik kayfiyatni, metall elementlar orqali esa futuristik yo'nalishni aks ettirish mumkin. Shuningdek, dekorativ detallar libosning strukturasi bilan ham bog'liq. Agar libosda qattiq shaklli yeng yoki geometrik yoqa ishlatilsa, bezaklar ham keskin chiziqli bo'lishi maqsadga muvofiq. Aksincha, siluetni nozik ko'rsatish maqsadida bo'lsa, k'rinmas choklar, ipdan ishlangan elementlar yoki gazlamaga mos rangli kashtalar uyg'unlashtirish mumkin. Libosdagi individual uslubni yaratishda rang ham katta ahamiyatga ega. Bezak elementlarining libos rangi bilan kontrastda yoki uyg'unlikda bo'lishi dizayner qarashiga bog'liq. Masalan, qora libosga oltin yoki kumush rangli dekorativ bezaklar ishlatilsa, libos bayramona kayfiyatda ko'rinadi; pastel rangli matolarda esa sokin, nozik uslub hosil bo'ladi. Libosda rangdan tashqari dekorativ qo'lda tikilgan elementlar yana moda olamida dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki ular avtomatik mashinalarda yaratiladigan naqshlardan farqli o'laroq, inson mehnatini, individual hissiyotini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, eksklyuziv liboslarda har bir chok va ipning yo'nalishi ham dizaynerning ruhiy holatini ifodalaydi.

Masalan,

1. Choklar va tikuv texnikalari orqali individuallik. Oddiy tikuv choki ham dizayner qo'lida shaxsiy ma'no kasb etishi mumkin. Yapon dizaynerlari Yohji Yamamoto va Rei Kawakubo ochiq, yirtilgan va qayta tikilgan choklarni qo'llab, har bir chokni hayotiy tajribaning izi sifatida talqin qilganlar.

2. Tugmalar- shaxsiy kod elementlari. Tugma ham oddiy vazifan bajarmaydi. Paul Smith har bir mijoz uchun maxsus tugmalar ishlab chiqaradi- ularga ism, tug'ilgan yil, kunlarni o'yib yoziladi.

3. To'r va lentalar. To'r elementlari eng nozik shaxsiy chiziqlar.

4. Kashtachilik- eng chuqur shaxsiy hikoya. Kashtachilik eksklyuziv liboslarda eng qimmat va eng shaxsiy detal hisoblanadi. Elie Saab 2024- yili kolleksiyalarida mijozning vatani xaritasi 280000 ta kristall bilan kashta qilingan.

Shunday qilib, har bir detal, bezak turining o'ziga xosligi bo'lib, bir libosda o'z o'rniga ega.

Zamonaviy moda yo'nalishlarida dekorativ detallarni qo'llash tajribasi. Hozirgi moda industriyasida dekorativ detallar yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda. Laser kesish, 3D tikuv, qo'l kashtachiligi va aplikatsiya texnikalari orqali liboslarga badiiy ifoda berilmoqda. Ayrim dizaynerlar mato yuzasiga metall iplar, shisha dekorlar, hatto tabiiy toshlar ishlatish orqali libosni individual yaratishmoqda. Masalan, fransuz dizayneri Elie Saab o'z kolleksiyalarida to'rtli gazlamalarga nozik kashtalar orqali bezatib, nafislik yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek dizaynerlari ham milliy elementlarni yangi shaklda talqin etmoqda. Ipak va adras matosiga qo'lda ishlangan bezaklar, gul naqshli aplikatsiyalar, milliy chok uslublari yordamida liboslarda milliylik va zamonaviylik uyg'unlashtirib, o'zlarining noyob g'oyalari bilan bo'lishishmoqda. Bunday yondashuv eksklyuziv libosni nafaqat kiyim, balki madaniy merosni ifodalovchi badiiy asar bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "slow fashion" — ya'ni sifat, barqarorlik va shaxsiy mehnatga asoslangan moda yo'nalishi kuchaygani sari dekorativ detallar yana diqqat markazida bo'lishga ulgurdi. Dizaynerlar uchun eng muhim narsa — har bir bezak elementining maqsadini bilishdir. Agar detal shunchaki bezatish uchun emas, balki g'oyani ifodalash uchun xizmat qilsa, u holda libos haqiqatan ham san'at darajasiga ko'tariladi. Bundan tashqari yana bir dizayner — Lan Yu yosh bo'lishiga qaramay, o'z liboslarida dekorativ detallarni nozik va ijodiy tarzda ishlatadi. U an'anaviy Xitoy kashtasini zamonaviy libos dizayniga uyg'unlashtiradi va har bir libosga individual uslub beradi. Kashta, aplikatsiya va mato kombinatsiyalari yordamida Lan Yu eksklyuziv va vizual jihatdan boy liboslar yaratadi. U 3D dizayn dasturlari orqali har bir detalning joylashuvini mukammal rejalashtiradi, bu esa libosning estetik va funksional qiyofasini oshiradi.

Xulosa. Eksklyuziv liboslarda dekorativ detallar individual uslubni yaratishning eng muhim vositalaridan biridir. Har bir detal — dizaynerning badiiy fikrini, estetik qarashini va ijodiy yondashuvini namoyon etadi. Zamonaviy modada shaxsiylik, o'ziga xoslik va takrorlanmaslik qadrlanayotgan bir davrda dekorativ elementlar libosning ifoda kuchini oshiruvchi vosita sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatadiki, dekorativ detallarni to'g'ri tanlash va joylashtirish orqali libosda nafaqat tashqi go'zallik, balki ruhiy uyg'unlik ham yaratiladi. Bundan tashqari eksklyuziv liboslarda dekorativ detalni ijodiy yondashuv bilan ishlatish — bu libosni san'at asariga aylantirishning asosiy omili. Shuning uchun har bir dizayner, libosning tashqi ko'rinishi va ruhiy ifodasi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga intilishi zarur. Kelajakdagi moda loyihalarida dekorativ elementlarni yangi texnika va materiallar bilan boyitish, shuningdek, individual uslubni kuchaytiruvchi eksperimentlar olib borish, modaning innovatsion rivojlanishi va estetik yangilanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, eksklyuziv liboslar dunyosida dekorativ detallarning roli faqat bezak vositasi bilan cheklanmaydi — ular dizaynerning shaxsiy ovozi, madaniy identifikatori va badiiy tafakkurini namoyon etuvchi kuchli vositaga aylanadi. Shu sababli, har bir detalni tanlash va joylashtirish mas'uliyatli jarayon bo'lib, libosning o'ziga xosligini va mijozning individual uslubini ta'kidlashda beqiyos ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barnard, M. (2002). Fashion as Communication.
2. Kawamura, Y. (2011). Japanese Fashion Designers.
3. Smith, P. (2020). Interview by British Vogue.
4. Stelle, V. (2024), Ellie Saab: 40 Years.
5. Menkes, S. (2020). "Lan Yu: The Chinese Couturier Who Dresses Angels". Vogue China, March 2020.
6. Xo'jayev, Sh. (2020). O'zbek Milliy Kashtachiligi va Zamonaviy Moda. Toshkent: Fan Va Texnologiyalar.
7. Vogue Archives- Elie Saab, Guo Pei, Lan Yu to'plamlari sharhlari (2015-2025)